

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Samarqand viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllari bo'yicha 2017 yil yanvar-dekabr oylarida 3307,1 mlrd.so'm (645,7 mln. AQSH dollari dollar ekvivalentida) yoki 2016 yilga nisbatan 89,9 foiz asosiy kapitalga investitsiyalaridan foydalanildi.


2017 yil yanvar –dekabr oylarida jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 61,0 foizi Samarqand shahar, Qo'shrabot, Urgut, Samarqand tumanlarida o'zlashtirildi (mos ravishda jami investitsiyalarning 55,8 foizi o'zlashtirildi).

Investitsion faoliyat ko'proq Samarqand shahar, Qo'shrabot, Urgut, Samarqand tumanlarida kuzatildi (2016 yilga nisbatan 4,1 martta ko'paydi).

Payariq tumanida esa o'tgan yilga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalar 0,7 foizga kamaydi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar 2017 yil yanvar-dekabr oylarida 889,1 ming so'm yoki 2016 yilga nisbatan 103,2 foizni tashkil etdi.

2017 yil yanvar-dekabr oylari aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga investitsiyalar




Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Qo'shrabot tumanida 1650,0 ming so'm yoki o'tgan yilining mos davriga nisbatan 114,5 foiz, Samarqand shahrida (2777,3 ming so'm yoki 110,4 foiz), Oqdaryo tumanida (1064,1 ming so'm yoki 116,7 foiz) tumanlarida qayd etildi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2017 yil yanvar-dekabr oylarida asosiy
kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan foizda</i>
Jami	3307,1	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	136,6	4,1
tog' – kon sanoti	20,7	0,6
ishlab chiqarish sanoati	644,3	19,5
elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo	64,2	1,9
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta ishslash	60,8	1,8
qurilish	86,2	2,6
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalar va mototsikllarni ta'mirlash	408,5	12,4
tashish va saqlash	133,2	4,0
ovqatlanish va yashash bo'yicha xizmatlar	343,2	10,4
axborot va aloqa	42,7	1,3
moliya va sug'urta faoliyati	22,7	0,7
professional, ilmiy va texnik faoliyat	10,1	0,3
ta'lim	110,4	3,3
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	69,1	2,1
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	13,5	0,4
jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar	958,9	29,0
boshqa faoliyat turlari	182,0	5,6

2017 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar
(jamiga nisbatan foizda)



MULKCHILIK SHAKLLARI BO`YICHA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR TARKIBI
(jamiga nisbatan foizda)



Mulkchilik shakllari bo'yicha asosiy kapitalaga investitsiyalarning tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)

	2017yil yanvar - dekabr.	Ma'lumot uchun		
		2010y.	2015y.	2016y.
Asosiy kapitalga investitsiyalar	100,0	100,0	100,0	100,0
Xususiy mulki	78,2	91,0	16,0	83,0
Ommaviy (Davlat) mulki	21,8	9,0	84,0	17,0

Nodavlat mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlarning jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 2017 yil yanvar-dekabrdagi 78,2 foizni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2010 yilga nisbatan 12,8 foiz punktg'a kamaygan.

2017 yil yanvar -dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning 69,1 foizi qurilish-montaj ishlari yo'naltirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

	2017 yil yanvar-dekabr oylari.	
	mlrd. so'm	Jamiga nisbatan foizda
Asosiy kapitalga investitsiyalar	3307,1	100,0
qurilish-montaj ishlari	2284,5	69,1
mashina, uskuna, transport vositalari	869,2	26,3
boshqalar	153,4	4,6

2017 yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy moliyalashtirish manbaining 69,0 foizini korxonalar va aholining o'z mablag'lari tashkil etgan bo'lsa, jami investitsiyalarning qolgan 31,0 foizi jalb etilgan mablag'lar hisobiga to'g'ri keldi. Davlat byudjeti mablag'ining jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 7,1 foizni tashkil etadi. Bank sohasi va iqtisodiyotning real sektori boshqa qarz mablag'lari ulushi 14,1 foizni tashkil etib, o'tgan yildagiga nisbatan 3,1 foizga ko'paygan.

Davlat byudjetidan investitsiyalar O'zbekiston Respublikasi infratuzilmasini rivojlantirish, ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash va turmush tarzini yaxshilash maqsadlaridagi manzilli investitsiya dasturini bajarishga yo'naltirildi.

ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALAR MANBALARI

	2017 yil yanvar-dekabr		ma'lumot uchun jamiga nisbatan foizda		
	mlrd. so'm	jamiga nisbatan foizda	2010y.	2015y.	2016y.
Asosiy kapitalga investitsiyalar - jami	3307,1	100,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan mablag'lar xisobidan moliyalashtirildi::					
respublika byudjeti	235,5	7,2	7,2	4,9	6,0
korxona va aholi	2279,7	69,0	62,3	69,0	74,0
bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	467,5	14,1	14,9	12,0	11,0
xorijiy investitsiya va kreditlar	114,4	3,4	6,4	4,0	2,0
byudjetdan tashqari fondlar, tiklanish va taraqqiyot fondi, sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash fondlarini qo'shgan holda	162,7	4,9	6,1	8,0	6,0
davlat maqsadli fondlari, bolalar sportini rivojlantirish va rekonstruksiya qilish fondini qo'shgan holda	47,3	1,4	3,1	2,1	1,0

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlar


2017 yil yanvar-dekabrda 3307,1 mlrd.so'm (dollar ekvivalentida 645,7 mln. AQSH dollari yoki o'tgan yilga nisbatan 89,9 foiz asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi va uning jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 3,4 foizni tashkil etdi.

Qulay investitsiya muhitini shakllantirish va investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida olib borilgan qator islohotlar natijasida o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2017 yil yanvar-dekabr oylarida 114,4 mlrd so'mni (dollar ekvivalentida 24,9 mln. AQSH dollari) tashkil etib, investitsiyalardagi ulushi 3,4 foizni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kreditlar

(mln. AQSH dollari, jamiga nisbatan foizda)

Asosiy kapitalga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar



2017 yil yanvar -dekabr oylarida o'zlashtirilgan asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning tarkibi quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanishi mukin:

	mlrd. so'm	jami hajmga nisbatan foizda	
		hukumat kafolati asosida	to'g'ridan-to'g'ri va boshqalar
Jami	114,4	49,6	50,4
shu jumladan:			
Davlat	56,5	49,4	-
Nodavlat	57,9	0,2	50,4